



www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 79-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

ETNOTURIZM – IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich

t.f.b. falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

Email: new_rich80@mail.ru

Tel.: +998974404388

ORCID 0009-0005-8448-5184

Annotatsiya. Maqolada etnoturizm tushunchasi, ushbu tushuncha haqidagi xorijiy olimlarning turlicha qarashlari, etnoturizmning asosiy shakllari va turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, etnoturizmni rivojlantirishning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: turizm, etnoturizm, etnik turizm, etnografik turizm, etnoqishloq, etnoxiyobon, etnografik va o'lkashunoslik muzeyi, aborigen turizmi, antropologik turizm, nastolji turizmi, jaylov turizmi.

ETHNOTOURISM - A FACTOR OF SOCIAL AND ECONOMIC DEVELOPMENT

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

Uzbek State University of Physical Education and Sports

Department of Social and Humanitarian Disciplines

Annotation. The article analyzes the concept of ethnotourism, various views of foreign scholars on this concept, the main forms and types of ethnotourism, their features, the role and significance of ethnotourism development in the socio-economic development of the region.

Keywords: tourism, ethno-tourism, ethnic tourism, ethnographic tourism, ethno-village, ethnopark, ethnographic and local history museum, aboriginal tourism, anthropological tourism, nastolji tourism, zhailo tourism.

KIRISH. Turistik biznes iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasiga mansub tarmoq bo'lib, uning korxona va tashkilotlari sayyohlarning moddiy va nomoddiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Uning asosiy vazifasi insonni to'laqonli va oqilona dam olish bilan ta'minlashdir. Turizm biznesi dunyoning ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u xalqaro miqyosdagi industriyaga aylanib, daromadlari bo'yicha iqtisodiyotning eng yirik eksport tarmoqlari orasida neft qazib olish sanoati va avtomobilsozlikdan keyin uchinchi o'rinni egalladi.

Xorijda turizm sanoatining faol rivojlanayotgan yo'nalishi etnoturizm bo'lib, turizmning ushbu turini rivojlantirish orqali hududlarning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash faoliyatini kichik biznes uchun barqaror biznesga aylantirish, shuningdek, mahalliy xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlash imkoniyati mavjud. Etnoturizm – turizmning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u dunyo xalqlarining madaniyati, turmush tarzi va an'analarini o'rganishga qaratilgan etnik, til va madaniy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Oddiy qilib aytganda, etnoturizm ma'lum bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, uning turmush tarzi va madaniyati haqidagi tushunchani kengaytirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga,

bunday turizm doirasida o'z tarixini yaxshiroq bilib olish va ilgari davrlarga qaytish, shuningdek, mutlaqo noma'lum turli etnik guruhlar va ularning turmush tarzi bilan tanishish mumkin bo'ladi. Shuningdek, etnoturizmning rivojlanishi hududlar barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Turizmni, xususan, etnoturizmni rivojlantirish, ayniqsa, qulay iqlim sharoiti va boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan ko'p millatli mintaqalarda katta ahamiyatga ega [7; 17-b.]. Etnoturizm madaniy-ma'rifiy turizm yo'nalishlaridan biri bo'lib, jahon amaliyoti turizmning mazkur turi insonning qator ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi mumkinligini isbotladi. Etnoturizm turistlarning xalqlarning haqiqiy hayotiga qiziqishiga, ularning an'analari, marosimlari, madaniyati va ijodi bilan tanishishiga asoslanadi. Bizning hozirgi zamonaviy dunyomiz insonning o'zini identifikatsiya qilishga, o'z ildizlarini topish va o'rganishga, o'ziga xosligini anglashga, o'z tarixi va madaniy an'alariga ega bo'lishga intilishi bilan tavsiflanadi. Boshqa etnoslar va madaniyatlarni bilish esa sayyohga o'ziga xos individuallikka ega bo'lgan xalqlarning xilma-xil dunyosi haqida aniq va yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Etnik turizm (etnoturizm) so'nggi paytlarda mahalliy va xorijiy yetakchi olimlarning tadqiqotlari asosida tobora ommalashib bormoqda. Ushbu turizm industriyasini rivojlantirish uchun katta investitsiyalar talab etiladi. Uni an'anaviy xo'jalik iqtisodiyotini saqlash va rivojlantirish mumkin bo'lgan strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rish mumkin. Etnoturizmni rivojlantirish madaniy merosni saqlashga hissa qo'shish va hududlar barqaror rivojlanishining muhim omili bo'lishi kerak. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, etnoturizm turli mamlakatlar aholisi o'rtasida tinchlik va o'zaro hamjihatlikni yaratishning eng samarali usuli hisoblanadi [14; 133-b.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Etnoturizmni o'rganish ko'p qirrali jarayon bo'lib, etnografik qishloqlar, muzeylarga sayohatlar, festivallarda ishtirok etish va an'anaviy taomlarni o'rganish orqali xalqlarning turmush tarzi va madaniyatiga ham nazariy, ham amaliy kirib borishni o'z ichiga oladi. Etnoturizm yo'nalish sifatida madaniy-ma'rifiy turizm doirasida faol o'rganilib, etnografiya va etnogeografiyaga tayanadi, sayyohlarga mahalliy madaniyat bilan tanishish, madaniy merosni asrab-avaylash va noyob tajriba orttirishni taklif etadi.

Etnoturizm birinchi marta 1977 yilda AQSHda nashr etilgan V.Smit [20] tahriri ostidagi "Mezbonlar va mehmonlar. Turizm antropologiyasi" asarida ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Agar 1960-yillarda periferik shtatlarda yashovchi alohida aholi guruhlarining etnik va madaniy xususiyatlari xalqaro turizm rivojlanishidagi ko'plab omillardan biri hisoblangan bo'lsa, keyingi o'n yilliklarda etnoturizm mustaqil faoliyat sohasi sifatida paydo bo'ldi. Bu aholi ma'lum bir qismining postindustrial jamiyatdagi an'anaviy mavjudlik shakllaridan tubdan farq qiladigan jamoalarning turmush tarzini tushunish zarurati bilan boshlandi. Rossiyalik mualliflarining asarlarida etnoturizm XX asr boshlarida madaniy an'analarning yo'qolishiga va mahalliy tillarning yo'q bo'lib ketishiga olib kelgan globallashuv jarayonlarining kuchayishi muammolari kontekstida ko'rib chiqila boshlandi.

Adabiyotlar tahlili xorijda, xususan, Rosiyada etnoturizmga bag'ishlangan tadqiqotlar sharhini o'z ichiga oladi. Shukin, Sunduyev, Xishiktuyeva, Nankina, Ramazanova, Nikonova, Butuzov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular etnoturizmning uzoq hududlar, ayniqsa qishloq jamoalari uchun madaniy va iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydilar. Maqolalarda, shuningdek, etnik turizmning infratuzilmani rivojlantirishga ta'siri, mahalliy

aholining turmush darajasini oshirish va madaniy merosni asrab-avaylash kabi masalalar ham yoritilgan.

Tadqiqotda xorijiy mamlakatlarda etnoturizmning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun sifatli ma'lumotlar tahlili – qiyosiy usuldan foydalanildi. Ma'lumotlar adabiyot manbalarini tahlil qilish orqali to'plangan.

Muhokama. Etnik va etnografik turizmning nisbati haqida turli xil qarashlar mavjud. Chunonchi, A.I. Shukin o'zining dissertatsion tadqiqotida etnografik turlarning (sayohatlarning) asosiy ishtirokchilari etnografiya bilan professional shug'ullanuvchi kishilar ekanligini ta'kidlaydi. O'z navbatida, etnik turizm ishtirokchilari sayyohlarning keng auditoriyasi bo'lib, ularning asosiy maqsadi ma'naviy ehtiyojlarni qondirishdir [19]. V.N. Presnyakov va M.A. Julina etnik va etnografik turizmni bir-biriga sinonim deb hisoblaydi. Sovet davrida "etnografik" turizm tushunchasi ("etnografiya" fani bilan bog'liq) keng tarqalgan bo'lib, "etnik" turizm atamasi ishlatilmadi [9]. Chet el adabiyotida V.Smit etnik turizmni madaniy va tarixiy turizmdan ajratadi [20]. So'nggi paytlarda etnik-madaniy, jaylov va antropologik (aborigen) turizm tushunchalari paydo bo'ldi. Rus va xorijiy ilmiy adabiyotlarda etnoturizmga yaqin tushuncha sifatida "madaniy turizm" ("cultural heritage tourism", "heritage tourism" yoki "diaspora tourism") atamasi qo'llanilmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Milliy tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish jamg'armasi madaniy turizmni "tarixiy joylarga tashrif buyurish va insoniyat tarixini aks ettiruvchi joylar bilan tanishish" deb ta'riflaydi [11]. Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni asrash bo'yicha xalqaro kengash (ICOMOS) madaniy turizmni "turizmning maxsus turi" deb ta'riflaydi, uning maqsadi (ko'plab boshqa maqsadlar qatorida) yodgorliklar va obidalarni kashf etishdir [15; 126-b.]. Etnoturizmga eng yaqin tushuncha, bizningcha, etnomadaniy turizm (ethnocultural tourism) deb hisoblash mumkin. A.G. Butuzov esa bunga etnografik, antropologik, etnik, nostalji turizmini ham kiritgan [2; 16-b.].

Etnoturizmning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: ochiq havoda joylashgan etnografik va o'lkashunoslik muzeylar, etnografik qishloqlar, arxeologik-etnografik majmualar, etnografik muzey-qo'riqxonalar, sahnalashtirilgan bayramlar va marosimlar, shuningdek, tarixiy va xalqona yodgorliklar asosida tashkil etilgan sayohatlar. Demak, hududda etnografik turizmni rivojlantirish omillari quyidagilardan iborat: etnoturizmning asosiy manbasi bo'lgan an'anaviy madaniyatning yuqori darajada saqlanganligi; tarixiy yodgorliklarning mavjudligi; ko'rgazmalar va ta'lim dasturlari orqali mahalliy aholining turli shahar va mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarni qabul qilish tajribasining mavjudligi [7; 327-b.].

Turizm sohasida "etnoqishloq" tushunchasi ko'pincha qishloq yoki ekologik turizm bilan birgalikda ta'lim turizmini rivojlantirish uchun maxsus jihozlangan majmua sifatida talqin etiladi. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, "etnoqishloq deganda etnik va lokal (mahalliy) identiklikni (o'ziga xoslikni) aks ettiruvchi barcha tarkibiy qismlari bilan an'anaviy qishloq landshaftining obrazli ko'rinishi" tushuniladi [4]. Etnoqishloqlarni yaratishdan ko'zlangan maqsadlar – rekonstruksiya qilingan aholi punktining asosiy iqtisodiy, savdo va maishiy xususiyatlarini namoyish etish, etnik an'analar va asosiy iqtisodiy xususiyatlarni ko'rsatish, hudud uchun an'anaviy bo'lgan qimmatbaho, noyob me'moriy inshootlarni asrab-avaylash, mahalliy madaniyat va an'analar bilan tanishish, an'anaviy xalq sayillari va konsertlarini o'tkazishdan iborat.

Etnoxiyobonlar ochiq osmon ostidagi majmualar bo'lib, har kimga turli mamlakatlar xalqlarining asl uylari, turmush tarzi, an'analari va madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Etnoxiyobonlar tarixiy, madaniy va tabiiy ob'ektlarni muzey ekspozitsiyasi va madaniy-ma'rifiy turizm ob'ektlariga aylantirish muammolarini hal qilishni rekreatsion maqsadlar bilan birlashtirishga, shuningdek, tashrif buyuruvchilarni xalq madaniyati bilan tanishtirish, xalq sayillari va hunarmanchilik an'alarini tiklashga qaratilgan ommaviy tadbirlar uchun qulay sharoitlar yaratish imkoniyatidan foydalanishga harakat qilmoqda [3].

Etnoturizm xalq turmushi (etnografik) muzeylari bilan tanishishni ham o'z ichiga oladi. An'anaviy me'morchilik namunalari, uy-ro'zg'or buyumlari va milliy bayramlarga mezbonlik qiluvchi ochiq osmon ostidagi etnografik muzeylar sayyohlarda alohida qiziqish uyg'otadi. Birinchi bunday ochiq osmon ostidagi muzey 1891-yilda Shvetsiyada tashkil etilgan. U Skansen nomini olgan [13; 55-b.]. Unda butun Shvetsiyadagi barcha an'anaviy binolar yig'ilgan bo'lib, festivallar o'tkaziladi va milliy raqslar namoyish etiladi. Rossiyaning ochiq osmon ostidagi muzeylaridan eng mashhuri Kareliyadagi xuddi shu nomdagi orolda joylashgan Kiji hisoblanadi. Minglab sayyohlar Kosmodemyanskidagi (Mari-El Respublikasi) etnografik muzeyga tashrif buyurishadi, unda yog'och me'morchiligi namunalari, Mari Volgabo'yining an'anaviy dehqon xo'jaligida qo'llanilgan qadimiy mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari namoyish etilgan [18; 15-16-b.].

Etnografik va o'lkashunoslik muzeylari etnomadaniy turizm markazlari va etnoturizmning eng muhim va istiqbolli ob'ektlari hisoblanadi. Etnografik va o'lkashunoslik muzeylari muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi: xalqlarning madaniy xilma-xilligiga hurmat va turli etnoslar vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini rivojlantirish [12]; an'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash, an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlarini saqlash va ishlab chiqarish; tabiatga ehtiyotkorona munosabat, tarixiy qimmatli madaniy landshaftlarni asrab-avaylash; mahalliy jamoalarni tiklash va etnik aholi punktlarini saqlab qolish [17].

Etnografik turizm ma'rifiy va ko'ngilochar maqsadlarda amalga oshiriladi. Ma'lum bir xalqning madaniyati va turmushi, kiyim-kechaklari, tili, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, an'analari bilan tanishtiradi va sayyohlarning keng doirasi uchun mo'ljallangan. Turizmning bu turi o'zining rejalashtirish va me'moriy qiyofasini, yerdan foydalanishning an'anaviy turlarini, odamlarning kundalik turmushi va ijodida xalq madaniyati elementlarini saqlab qolgan tarixiy qishloq aholi punktlariga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi [10; 181-b.].

Etnoturizmning aborijen, antropologik, joylov, etnomadaniy tadbirlar, pazandachilik (gastronomik) kabi turlari keng tarqalgan. Aborijen turizmi – bu mahalliy aholi vakillari ishtirokidagi etnik turizmdir. Bunday turizm sayyohning mahalliy aholi muhitiga moslashishi, mahalliy milliy madaniyat bilan bevosita tanishishini anglatadi [5]. Aborijen turizmi sayyohning tub aholi muhitiga kirib borishini, mahalliy milliy madaniyat bilan bevosita tanishishini nazarda tutadi ((masalan, Avstraliya aborijenlari yoki Afrika qabilalari). Turizmning bunday turining iqtisodiy ahamiyati shubhasiz, chunki u mahalliy aholini xizmat ko'rsatish, suvenirlar ishlab chiqarish va sotish orqali zamonaviy biznesga jalb qilish imkonini beradi. Eng muhimi, aborijenlarning o'z xo'jalik va madaniy an'alaridan uzilib qolishi kuzatilmaydi. Bu esa mahalliy aholining qo'shimcha daromad olishi bilan bir qatorda an'anaviy madaniyatlarning yaxshi saqlanishi va qayta tiklanishini ta'minlaydi.

Antropologik turizm etnografik turizmning yo'nalishlaridan biri sifatida yo'qolib ketgan etnik jamoalar madaniyatini o'rganish, zamonaviy madaniyat bilan tanishish maqsadida

ularning ilgari istiqomat qilgan mamlakatiga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan xalqlar va kichik elatlarning ixcham yashash joylariga tashrif buyurishni nazarda tutadi [2].

Nostalji (genealogik) turizmi (nostalgic tourism, genealogy tourism, ancestral tourism) o'z tug'ilgan joylariga yoki ota-bobolari yashagan joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. 1999-yilda Buyuk Britaniya sayyohlik boshqarmasi (VTA) muhojirlar va deportatsiya qilingan mahkumlarning avlodlarini o'z vatanlariga qaytishga va ularning nasl-nasabini o'rganishga chaqirgani turizmning ushbu sohasi rivojlanishi uchun turtki bo'ldi [1]. Hozirgi vaqtda turizmning mazkur yo'nalishi ayniqsa Ikkinchi jahon urushi odamlarning ommaviy migratsiyasiga olib kelgan Markaziy Yevropa mamlakatlarida mashhurdir.

Jaylov turizmi etnoturizmning eng yosh kichik turlaridan biri sifatida (qirg'izcha "jaylo" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, alp o'tlog'i, tog' yaylovi degan ma'noni anglatadi) ko'chmanchi hayot sharoitida sivilizatsiya afzalliklaridan uzoqda bo'lgan ta'til hisoblanadi. Jaylov turizmi Qirg'izistonda 1990-yillarning oxirida, mahalliy turoperator sayyohlarga bir muddat o'tov uylarda tog' cho'ponining hayotidek yashashni taklif qilgan paytda paydo bo'lgan. Shveytsariya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Rossiyadan kelgan sayyohlar birinchi bo'lib jaylov turizmini sinab ko'rishdi. Hozirgacha Qirg'iziston jaylov turizmi bo'yicha yetakchi hisoblanadi [10; 181-b.].

Etnomadaniy tadbirlarga an'anaviy bayramlar va festivallarga bag'ishlangan sayohatlar, masalan, Buryatiyadagi Sagaalga yoki Mo'g'ulistondagi ov festivalini misol keltirish mumkin. Pazandachilik yoki gastronomik turizm deganda an'anaviy taomlar bilan tanishish maqsadida sayohat qilish nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan nostalji (genealogik), etnografik, antropologik (aborigen) va jaylov turizmi etnoturizm tarkibiga kiradi, lekin uni sanab o'tilgan turlarga ajratish shartli hisoblanadi. Ba'zan bir xil yo'nalishni etnoturizmning bir necha turlariga kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, turizm iqtisodiyotning umume'tirof etilgan daromadli tarmog'i va mahalliy aholini ish bilan ta'minlash manbai hisoblanadi. Etnoturizm aholiga o'z madaniyatini ham, boshqa xalqlar madaniyatini ham yaxshiroq tushunish imkonini beradi va bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamlaydi [15; 127-b.].

Natijalar. Etnik turizm tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Birinchisi - bu boshqa mamlakatlar xalqlarining urf-odatlarini, an'analari, marosimlari, tillari, turmush tarzi va hokazolarni o'rganish bo'lsa, ikkinchisi - faqat o'z mamlakatiga tegishli bo'ladi [7; 325-b.]. Etnografik turizmning asosiy manbai xalqlarning madaniy-tarixiy merosi hisoblanadi. Ammo etnografik turizmning o'ziga xosligi ("barqaror" yoki "muqobil" turizmga kiritilgan) katta ijtimoiy mas'uliyatni, tabiatga nisbatan majburiyatlarni bajarishni, shuningdek, mahalliy aholini turizm faoliyatini boshqarish bilan bog'liq barcha jarayonlarga jalb qilishni nazarda tutadi. Etnik mahsulotlar butun dunyoda mashhur bo'lib borayotgan hozirgi sharoitda etnografik turizm aborigenlar uchun nafaqat an'anaviy madaniyatni saqlab qolish, balki uni o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga yordam beradigan faoliyat turiga aylanishi mumkin. Etnografik turmahsulotning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni amalga oshirish uchun etnik hamjamiyatning turli a'zolarining sa'y-harakatlari talab etiladi: an'analarni tashuvchi va saqlovchi keksalardan tortib, ta'lim olgan va bilimlarini o'z yurti manfaati uchun qo'llashga tayyor bo'lgan yoshlargacha.

Hududda etnografik turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar: manfaatdor sub'yektlar sa'y-harakatlarining zaif muvofiqlashtirilishi; mavjud yo'nalishlarning mavsumiy xususiyati (ba'zi manzilgohlarga faqat yozda yoki qishda borish mumkin); turistik biznesga sarmoya kiritish uchun boshlang'ich kapitalning yo'qligi; kirish turizmining o'ta cheklangan tur tarkibi; transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi; mintaqa keng turistik jamoatchilikka turistik tashrif ob'yekti sifatida kam ma'lum; mintaqaviy turizmni shakllantirish jarayonini boshqarish/tartibga solish tizimi zaif rivojlangan bo'lib, u boshqalarni o'z ichiga olgan innovatsion, investitsiyaviy, axborot, kadrlar, ilmiy, me'yoriy-huquqiy komponentlarni o'z ichiga olgan samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarga asoslanadi.

An'analar – bu mamlakatdagi odamlar o'rtasidagi munosabatlarning pozitsiyalari, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va tamoyillari tizimi, uning hayot ritmi va pulsidir. An'analar tavsifi mavjud an'analar tahlili, ularning mamlakat hayotidagi o'rni, muayyan etnoslar va hududlarga bog'liqligini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida an'ananing roli bir xil emas.

Etnoslarning an'analari maksimal darajada dinda aks etadi, ammo sezilarli darajada iqtisodiyotda ham namoyon bo'ladi. Jamiyatlar va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy-madaniy merosning ba'zi elementlarini qabul qilib, boshqalarini rad etadilar. Shuning uchun an'analar ijobiy ("nima va qanday an'anaviy ravishda qabul qilinadi") va salbiy ("nima va qanday an'anaviy ravishda rad etiladi") bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, an'ana - bu ijtimoiy tashkil etilgan stereotiplarda ifodalangan guruh tajribasi bo'lib, u makon-zamon transmissiyasi orqali turli insoniy jamoalarda to'planadi va takrorlanadi. Xalq ijodiyoti va ommaviy madaniyat, aksincha, ijodiy faoliyatning jamoaviy turlari bo'lib, ularning asosini an'analarning turli xillari, darajalari tashkil etadi [5].

An'ana orqali odamlar jamoasi kelajakda omon qolish, iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan xabarni meros qilib qoldiradi. Shunday qilib, aytish mumkinki, an'ana jamoaviy avtokommunikatsiya, ma'lum bir tabiiy muhitda omon qolish mexanizmidir. Etnik an'analar xalq ijodiyotining turli ko'rinishlari (folklor), hayotning iqtisodiy asosi, hunarmandchilik bilan chambarchas bog'liq.

Milliy an'analar – bu inson ongida o'z millatining qadr-qimmati, ulug'vorligi, qahramonona va shonli milliy tarixi, o'z xalqining barcha o'tmishdagi va hozirgi faoliyatidagi olijanoblighi, uning (jahon ahamiyatiga ega bo'lgan) adabiyoti, san'ati, fani va boshqalar haqidagi g'oyalarni mustahkamlaydigan milliy standartlar tizimidir [5].

Etnik turizmning eng muhim turi, bizning fikrimizcha, ma'lum xalqlarning an'anaviy madaniyati va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan mavjud aholi punktlariga tashrif buyurishdir. Ko'rsatilgan manzilgohlarni namunaviy deb atash mumkin, ular ko'chmanchilar, chorvadorlar, bug'uchilar, ovchilar, termachilarning vaqtinchalik qarorgohlari va qo'rg'onlari bo'lishi mumkin. Bunday aholi punktlari orqali o'tadigan turistik yo'nalishlar ko'pgina mamlakatlarda mavjud. Misrdagi eng mashhur dam olish turi safara bo'lib, sayyohlar badaviylar manzilgohlariga tashrif buyurib, ularning ko'chmanchi turmush tarzi bilan tanishadilar [13; 54-b.].

Ko'pgina sayyohlar uchun Lotin Amerikasining Peru davlatiga sayohat qilish maqsadlaridan biri bu mamlakatning tub aholisi – hindularning an'anaviy turmush tarzi bilan tanishish istagidir. Buning uchun sayyohlar mamlakatning uzoq hududlariga – xususan, Amazonka havzasi changalzorlariga borishadi. Bunda etnik turizmning ekologik turizm bilan

uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga o'xshash yo'nalishlar Shimoliy Hindiston va Shimoliy Tailand tog'larida, Avstraliyaning ichki hududlarida va Okeaniya orollarida o'tkazilgan. Yevropa mamlakatlarining ba'zi qishloqlarida sayyohlarni jalb qilish uchun aholi ba'zan o'z milliy kiyimlarini kiyadi. Ko'pincha dunyoning turli mintaqalarida sayyohlar rang-barang an'anaviy bayramlar va festivallarning guvohi va hatto ishtirokchisiga aylanishadi. An'anaviy aholi punktlariga tashrif buyurgan sayyohlar suvenir sifatida mahalliy hunarmandlarning turli mahsulotlarini sotib olishadi, milliy taomlarni tatib ko'rishadi [5].

Demak, etnoturizm orqali inson an'anaviy uy-joy va xo'jalik binolarini, milliy kiyimdagi mahalliy aholini ko'rish, shuningdek, an'anaviy bayramlarda ishtirok etish, milliy taomlardan tatib ko'rish va esdalik sifatida an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularning barchasi, umuman olganda, turli millat vakillari o'rtasida bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Etnoturizmni o'rganishning dolzarbligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Madaniy merosni asrab-avaylash: Etnoturizm xalqlarning o'ziga xos an'analari va madaniyatini saqlashda muhim rol o'ynaydi, bu ayniqsa globallashtirish sharoitida juda muhimdir.

Hududlarni rivojlantirish: Bu mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish va hududlarda infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi.

G'ayrioddiy tajribalarni izlash: Odamlar tobora ko'proq g'ayrioddiy, haqiqiy tajribalarni izlamoqdalar, bu esa etnoturizmga katta talabni keltirib chiqarmoqda.

Tarix va o'zlikni anglash: Etnomadaniy markazlarga sayohatlar milliy o'zlikni anglashning muhim omili bo'lgan ajdodlar tarixi, an'analari va turmush tarzini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Turizmning bu turi kelajakda o'zining noyobligi va betakrorligi tufayli yuqori talabga ega bo'ladi. Chunki hozirgi vaqtda etnik xilma-xillik biologik xilma-xillikning yo'qolish sur'atlariga mos ravishda kamayib bormoqda. Mahalliy kam sonli xalqlar o'ziga xos madaniyat va xo'jalik yuritish tizimining tashuvchilari hisoblanadi. Shuning uchun etnoturizmni rivojlantirish ularning an'anaviy yashash hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish bilan birgalikda istiqbollidir. Etnoturizmni an'anaviy xo'jalik iqtisodiyotini saqlab qolish va rivojlantirishning mumkin bo'lgan strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin. Turizmning ushbu turini rivojlantirishning ahamiyati shundan iboratki, etnoturizm ma'naviy va kognitiv ehtiyojlarni qondirishga va etnik madaniyatlararo o'zaro ta'sirga yordam beradi.

Shunday qilib, etnoturizm etnik guruh, o'ziga xos madaniyat bilan tanishish, madaniy andozalarning xilma-xilligini kashf etish imkonini beruvchi amaliyotdir. Shu bilan birga, sayyohlar va mahalliy hamjamiyatlar uchun etnoturizm salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun ushbu hodisaning mohiyati va rivojlanish vositalariga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarur, bu esa xalqaro turizm muammolari, tarixiy va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, rivojlanayotgan mamlakatlarda xayriya loyihalarini amalga oshiruvchi milliy va xalqaro tashkilotlarning dasturiy hujjatlariga aniqlik kiritish imkonini beradi. Etnik turizm turizm sohasidagi mutaxassislar, sayyohlar va qabul qiluvchi jamoalar uchun ham, uni xalqlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish vositasi sifatida ko'radigan xalqaro tashkilotlar uchun ham istiqbolli sayyohlik segmenti ekanligi haqidagi fikrlar munozarali bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Birtwistle, M. (2013). Genealogy tourism. Niche Tourism, 59.

2. Бутузов А.Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации // Сервис в России и за рубежом. 2013. №4. – С. 11-15.
3. Гармаев В. История казачества Бурятии: факты, документы, биографии, стихи: республиканская энциклопедия. Улан-Удэ: Весть, 2014.
4. История и культура народов Забайкальского края: музейно-выставочный комплекс ЗабГУ / А. Б. Жуков [и др.]. М., 2012.
5. Курина В. Культурно-познавательные возможности этнического туризма. URL: http://tourlib.net/statti_tourism/kurina.htm
6. Любичанковский А.В. Географический и культурологический подходы к дифференциации объектов культурного наследия // Вестник Оренбургского государственного университета. № 6, 2008. – С. 17-24.
7. Нанакина Ю.С., Рамазанова Л.Р. Этнотуризм как новое направление туриндустрии: значение и факторы социально-экономического развития // XIX Царскосельские чтения, 2017. – С. 324-328.
8. Никонова Т.В. Проблемы и преспективы развития этнотуризма в современном обществе // Журнал прикладных исследований. 2022. – С. 313-318.
9. Пресняков В.Н., Жулина М.А. Народные промыслы республики Мордовия и этнический туризм // География и туризм: сб. науч. тр. – Пермь, 2012.
10. Святоха Н.Ю., Филимонова И.Ю. Подходы к классификации этнического туризма // ВЕСТНИК ОГУ. №6 (167)/июнь, 2014. – С. 179-183.
11. Севастьянов Д.В., Щукин А.И. Предпосылки развития экологического и этнического туризма на северо-западе России // Вестн. С.-Петерб. гос. ун-та. Сер. 7. Геология. География. – 2012. – Вып. 3.
12. Strategiia razvitiia turizma v Rossiiskoi Federatsii na period do 2035 goda: Rasporiazhenie Pravitel'stva Rossiiskoi Federatsii ot 20 sentiabria 2019 goda 2129-r. Oftsial'nyi sait. Retrieved from <http://static.government.ru/media/fles>.
13. Сундуев Ч.Б., Хышиктуева Л.В. Этнотуризм как одно из направлений культурно-познавательного туризма // Вестник Бурятского университета. 2009/4. – С. 53-56.
14. Turdimuratov Y. A. Etnosport–milliy sport turlari va xalq o 'yinlarini rivojlantirishning muhim omili //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 132-139.
15. Турдимуратов Я. О 'zbekistonda etnosportni ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo 'nalishlari //Актуальные проблемы спортивной науки. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 125-128.
16. Чепасов В.И. Forecast days with zero values of the average daily air temperature in the harmonic model of tidal gravity change / В.И. Чепасов, О.Б. Попова, И.А. Подосенова // Вестник Оренбургского государственного университета. №9 (145), 2012. – С. 156-167.
17. Чибилева В.П. Рекреационная география [Электронный ресурс]: учебное пособие для студентов, обучающихся по программам высшего профессионального образования по направлению подготовки 05.03.02, 05.04.02 География / В.П. Чибилева, И.Ю. Филимонова. – Оренбург: ОГУ, 2015.
18. Чумаков К. Этноэкологический туризм в сохранении природного и культурного наследия // Новая жизнь. 2006. № 5. – С. 15-16.
19. Щукин А.И. Предпосылки и факторы развития этнического туризма на северо-западе Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. геогр. наук. – СПб.: СПбГУ, 2002.
20. Hosts and guests. Anthropology of tourism. Valene L. Smith, editor. Philadelphia: University of Pennsylvania Press. 1977. 254 p. URL: <https://doi.org/10.9783/9780812208016.263> (accessed: 10/24/2022).

HUMANSIENCES.UZ***№ 1 (1)-2025*****INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com